

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

Jo'ja she'ri o'qitiladi. She'r mazmunini tushuntirilishi tavsiya qilinadi.

Jo'jalar juda qiziq,

Oyoqlari qiltiriq.

Chiqishibdi tuxumdan,

Oppoq kichkina xumdan.

"Chip-chip", – deya so'zlashar,

Oyisini izlashar.

QR-kod orqali "Oltin tojli xo'roz" audio ertak tinglanadi va ertak asosida suhbat o'tkaziladi.

Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)

1. *Jj harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.*

2. *Jo'ja rasmini bo'yang. Jo'ja so'zining chizmasidan [j] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli kataknini bo'yang.*

3. *Berilgan namunadan bosma Jj harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.*

4. *So'zlarni avval nuqtalar yordamida, so'ng mustaqil yozing.*

5. *Rasmida ifodalagan so'zni o'qing j tovushini talaffuzini aniqlang berilgan so'zlardagi j tovushini talaffuzini namunadagi rangga bo'yang.*

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

-Qaysi topshiriqni bajarishga qiyonaldingiz?

56-mavzu: [j] tovushi. J jharfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [j] tovushining talaffuzi va Jj harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;

- so'zlardan [J] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;

- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: [j] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmlli va bo'g'inli kartochkalar, kesma harflar ,

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi 4 ta so'zdan iborat gap tuzishni so'raydi.

-*Bugun siz bilan "gap tuzamiz" mashqini o'tkazamiz. 4 ta so'zdan iborat gap tuzing.*


Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (10 daqiqa)

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog'liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so'zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

jayron- 2 bo'g'in. 1-bo'g'in jay, 2-bo'g'in -ron chizmasi



Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

O'xhash bo'g'inli so'zlarni o'qilishi va so'zlar ma'nolari tushuntiriladi.

jum-la, jum-boq

Topishmoq o'qitiladi. Rasmlar orasidan javoblari topiladi.

Bo'yni uzun, u tikka,
Jonivordir u bitta. (jirafa)

Yoqut, olmos va sapfir,
Ular bari –(javohir)

Jozibador kuy matni o'qitiladi. Matn mazmuni asosida suhbat o'tkaziladi.

Ja-sur ju-da ki-chik yo-shi-dan musi-qa as-bob-la-ri-ni cha-lish-ga qi-zi-qar e-di. U jaj-ji qo'l-cha-la-ri bi-lan pi-a-nino-ni cha-lar-di. Mu-si-qa dar-si-da g'ij-jak as-bo-bi-ni ko'-rib, qi-zi-qib qol-di. Ja-sur-ga g'ij-jak-da cha-lin-gan kuy ju-da yoq-di. Jon-kuyar us-toz Ja-mi-la o-pa Jasur-ga g'ij-jak cha-lish sir-la-ri-ni o'r-ga-tishga so'z ber-di

Daftар bilan ishlash: (10 daqiqa)

1. J tovushi qatnashgan so'zlarni belgilang.

2.Jadvalda berilgan j harflarini bo'yang.

Darsga yakun yashash:

Refleksiya mashqi

Darslik

Rasmiga qarang. Ji harti qatnashgan so'zlarni topoib, ulariga mos chizma chiqing.

ja-sur	jim-til
jij-da	jan-nat
jaj-ji	

joy	maj-nun-tol
jag'	may-mun-jon
jam	jo-ziba-dor

Ba'yini uzun, u tikka, Yoqut, olmos va sapfir, Jonivordir u bitta.

Jozibador kuy

Ja-sur ju-da ki-chik yo-shi-dan musi-qa as-bob-la-ri-ni cha-lish-ga qi-zi-qar e-di. U jaj-ji qo'l-cha-la-ri bi-lan pi-a-nino-ni cha-lar-di. Mu-si-qa dar-si-da g'ij-jak as-bo-bi-ni ko'-rib, qi-zi-qib qol-di. Ja-sur-ga g'ij-jak-da cha-lin-gan kuy ju-da yoq-di. Jon-kuyar us-toz Ja-mi-la o-pa Jasur-ga g'ij-jak cha-lish sir-la-ri-ni o'r-ga-tishga so'z ber-di.

sahifasini shu dars beti rasmi

Dars qiziq va tushunarli bo'lgan bo'lsa yashil qalamni, uncha tushunarsiz bo'lsa sariq qalam, umuman hech narsani tushunmagan bo'lsangiz qizil qalamni ko'taring.



57-mavzu: [x] tovushi. X xharfi

Dars maqsadi:

- [x] tovushining talaffuzi va X x harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [x] undosh tovush ekanligini bilib oladilar.
- so'zlardan [x] harfining o'mini aniqlashni o'rghanadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;
- [x] tovushi ishtirok etgan so'z va gaplarni o'qishni o'rghanadilar.

Tayanch so'zlar: [x] tovushi

Didaktik materiallar: rasmi li kartochkalar,

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Faqat katta mashqi: O'qituvchi o'quvchilardan faqat katta harf bilan yoziladigan so'zlarni topib aytishni so'raydi.

-Bugun siz bilan "Faqat katta "mashqini o'tkazamiz. Navbat bilan faqat katta harflar bilan yoziladigan so'zlarni aytинг.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi topishmoq aytadi :

Boshi taroq, dumi o'taq.

O'quvchilardan topishmoqni javobi qanday tovush bilan boshlanishini topishni so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Topishmoq nima haqida?*